

**JAMOAVIY ILG‘OR ISH TAJRIBALARING TAKOMILLASHISH
JARAYONI HAMDA OMMALASHTIRISHNING TURLARI VA YO‘LLARI.**

Tillaboyev Isroiljon Roziqovich

O‘zbekiston Respublikasi oriental universiteti magistri

***Annatatsiya: Ushbu maqolada o‘qituvchilarini ish tajribalarini qanday
ommalashtirish, nomoyon etish, turli yo‘llar bilan muofiqlashtirish usullari
ko‘rsatilgan.***

Kalit so‘zlar: ommalashtirish, usullari va turlari

*Ilg‘or ish tajribalar nafaqat atayin yaratilishi, balki, har bir insonning o‘z
xarakter xususiyatlaridan va kasbiy malakalaridan, ish tajribalaridan, mehnat
faoliyati yilining ko‘pligidan kelib chiqib o‘zigagina xos ilg‘or ish tajribasini
yaratishi mumkin. ko‘pincha bunday ish tajribalar faqatgina ushbu
o‘qituvchidagina yaxshi samara, effekt berishi mumkin bo‘lib, boshqalarda effekt
bermasligi mumkin, bunda o‘qituvchining shaxsiy xarakteri yuqori o‘ringa
chiqadi. Maasalan ba’zi o‘qituvchilar bolalarga qattiqqa ‘llik bilan qaysidir
talabni qo‘ygan holda o‘qitishi mumkin, ba’zi o‘qituvchilar esa o‘quvchilar bilan
do‘sit bo‘lib ta’lim sifatini ko‘tarishi mumkin. ba’zi o‘qituvchilar darsida faqat
o‘zidagina qo‘llaydigan metodi bovlib, o‘quvchilar uzoq yilar davomida ushbu
o‘qituvchini mana shu metodi orqali tanishi, bu o‘qituvchining shaxsiy imzosi
bo‘lib xizmat qilishi mumkin bu usul. Albatta bu usulini boshqa ovqituvchilar
qo‘llashg xarakat qilishi mumkin, lekin ko‘p xollarda bu aksincha effekt berib
qolishi mumkin. Shuning uchun bunday ilg‘or ish tajribalar odatda
ommalashtirilmaydi, shunchaki ba’zi o‘qituvchilarining shaxsiy metodi bo‘lib
xizmat qilishi mumkin. ba’zi o‘qituvchilar ushbu metodlari orqali bir og‘iz so‘z
bilan boshqa o‘qituvchilar uzoq vaqt davomida qiyinchilik bilan tushuntiradigan
mavzularini tushuntirib, o‘quvchilarida yuqori natijalar ko‘rsatishi mumkin. Bu,
o‘qituvchining pedagogik salohiyati va mahorati, psihologik yondashuvi asosida
yaratilgan topqirlilik asosidagi metodlari hisoblanadi. Bunday ilg‘or ish tajribalar*

istalgan o‘qituvchida yillar davomida takomillashib, sayqallashib borishi mumkin. Bunga erishish uchun maktblarda o‘zaro dars kuzatishlar faoliyatini yaxshilash lozim bo‘ladi. o‘qituvchilar qanchalik ko‘proq bir-birlarini darslarini kuzatishsa, kuzatuvchi pedagogda shuncha ko‘p tajribalar yig‘ilib boraveradi. ko‘rgan, kuzatgan tajribalari asosida barcha guvohi bo‘lgan metodlari ichidan o‘ziga foydali bo‘lgan metodni yaratishiga erishishi mumkin.

Demak ilg‘or ish tajribalar atayin yaratilgan ishlar bo‘lmasligi, yillar davomida yaratiluvchi individual tajribalar asosida shakllanuvchi metodlar bo‘lishi mumkin ekan. Yana bir xulosa shuki, har qanday ish tajribani ham ommalashtirish imkoni mavjud bo‘lmasligi mumkin. Bu holatlarda o‘qituvchining shaxsiy tjribasi yuqori o‘rin tutadi.

Ommalashtirishning turlari va yo‘llari

Ilg‘or tajribasi va faoliyati davomida qo‘llab kelayotgan zamonaviy metodikalarini ommalashtirishning turli yo‘llari va turlari mavjud.

Ilg‘or ish tajribalarni ommalashtirishning quyidagi yo‘llari bor:

Og‘zaki. Suhbat orqali o‘qituvchilar bir-biriga o‘zlarining ilg‘or ish tajribalari haqida so‘zlab bergan xolda ommalashtirishi mumkin. Suhbat orqali ommalashtirish samarali bo‘lgani bilan bir qatorda, ko‘p vaqtini talab qiladi hamda qamrov ko‘لامи kam bo‘ladi. Bu holda ommalashtirish ishlari ilg‘or ish tajriba muallifi tomonidan bevosita yetkazilishini inobatga olinsa mazkur yo‘l orqali ommalashtirish jarayoni hududi kam natijani ko‘rsatadi.

Yozma. Ilg‘or ish tajribani yozma ravishda ommalashtirish. Bu holda ilg‘or ish tajriba egasi o‘zining ish tajribasini yozma shaklda ifodalab uni hamkasblariga taqdim etadi. Bu yo‘l orqqali mavjud ishni batafsil yoritishi va barchaga birdek taqdim eta olish imkoniyati mavjud. Yozma yo‘l orqali ommalashtirishda ko‘p matnlar orqali o‘qituvchilarni zerikib qolmasligiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida qisqa-lo‘nda yozish maqsadga muvofiq.

Tarqatma materiallar orqali ommalashtirish. Bunda yaratilgan ilg‘or ish tajriba tarqatma materialga bosib chiqarilgan holda sohaga aloqador hamkasblariga tarqatilishi mumkin. Bu holda ayni yaratilgan ishni asosiy mazmuni va yangiligini yoritib berishi lozim bo‘ladi. U bir varaq yoki bir necha varaqdan iborat bo‘lishi mumkin. Bu holda yoziladigan matn va infografikalardan qanchalik yaxshi foydalanishiga qarab yuqori yoki past natija ko‘rsatishi mumkin bo‘ladi. Tarqatma materiallar soha xodimlariga bevosita o‘zlariga berish orqali ommalashtiriladi. Mazkur jarayonda qayta aloqa suhbat metodi orqali o‘rnatalishi mumkin.

Kitob orqali ommalashtirish. Bun yo‘lda yaratilgan ilg‘or ish tajriba kitob, brashyura holiga keltiriladi yoki to‘plamga kiritiladi. Yaratilgan kitoblar ocjiq savdo oraqli kitob do‘konlarida sotissh orqali yoki kutubxonalarga tarqatilishi orqali ommalashtiriladi. Bu usulning afzalligi shundaki, yozilgan metodlarning qanday yaratilgani, ularning samaralari batafsil turli usullarda yoritilib berilishi, kitobxonga taqdim etilishi mumkin. Kitobda yozilgan ilg‘or ish tajribalar sohada faoliyat yuritadigan pedagoglarga uzoq yillar davomida xizmat qiladi. Mazkur yo‘lda yaratilgan kitobning sifati ham muhim rol o‘ynaydi. Kitob chiqarishga ketadigan xarajatni kelishilgan holda hal etish mumkin, chunki yaratilgan kitob sotuvidan nafaqat ketadigan xarajat qoplanishi, balki foyda ham keltirishi mumkin.

Gazeta va jurnal orqali ommalashtirish. Bu yo‘lda ilg‘or ish tajriba egasi o‘zining ish tajribasini yozma shaklda yozib, gazeta va jurnallar orqali boshqa hamkasblariga taqdim etadi. Mazkur yo‘lning afzallik tarafi, ilg‘or ish tajriba bir vaqtda butun hudud yoki respublika miiqyosida manzilli tarzda hamkasblariga yetib borishi mumkin. Mazkur yo‘lda qayta aloqa yaxshi ishlamasligi bu yo‘lning kamchiliklaridan biri, deyish mumkin.

Radio orqali ommalashtirish. ilg‘or ish tajribani radioda eshittirishlar orqali ommalashtirish yuqoridagi yo‘llardan samaraliroq hisoblanadi. Bunda radioda ilg‘or ish tajribalarni ilg‘or ish tajriba egasi bevosita reportajlar orqali radio auditoriyasiga yetkazishi mumkin. Bu holda agarda jonli efirda suhbat

jarayoni bo'lsa ushbu ish yuzasidan telefon orqali qayta aloqa qilishi, savollarga javob olishi mumkin. Hozirgi kunda radio eshituvchilar soni kamayib ketgani bois ushbu yo'l orqali yuqori darajada maqsadli auditoriyaga yetkazish imkoniyati kamroq, deyishimiz mumkin.

Televideniya orqali ommalashtirish. Televideniya orqali ilg'or ish tajribani ommalashtirish jarayoni avvalgi yo'llardan ancha samarali va effekti yaxshi yo'ldir. Yaratilgan ilg'or ish tajriba bir vaqtida buitun mamlakat biror ish tajriba bir vaqtida butun mamlakat bo'ylab yetkazilishi mumkin. Ushbu tajribani ko'rvuchilar yoshi chegaralanmaga hamda boshqa sohadagi insonlar ham kuzatish imkoniyati mavjud. Televideniya orqali ommalashtirishda mavsumga, vaqtga alohida e'tibor beriladi. Barcha ko'radigan tig'iz vaqlarda qo'yiladigan efirlar samarasi yanada yuqori bo'ladi. Televideniya orqali ommalashtirishda maxsus effektlarda, vizual media dasturlaridan unumli foydalangan holda keng auditoriyaga namoyish etilsa effekti yanada yaxshi bo'ladi.

Internet orqali ommalashtirish. Hozirgi zamon shiddatli rivojlanish asriga guvoh bo'lmoqdamiz. Internet xayotimizning yorqin ajralmas bir bo'g'iniga aylanib ulgurdi. Har qanday yangilikni, ma'lumotni internet orqali ommalashtirish eng samarali, eng tezkor, eng effektli, foydali, maqsadli yo'li hisoblanadi. Ushbu jarayon eng kamxarj usuli xisoblaanadi. Internet orqali ommalashtirishda veb saytlar va ijtimoiy tarmoqlar, veb platformalardan foydalaniлади.

Vebsayt (boshqa variantlari: **veb-sayt**, **veb sayt**, **website**, **web site** yoki shunchaki **sayt**; inglizcha: *web* — „to'r» va *site* — „joy») deb kompyuter tarmog'idagi bir elektron manzilda joylashgan (elektron hujjatlar majmuiga aytiladi. Elektron manzil (domen yoki IP) shaklizeuo da bo'ladi. Vebsaytni veb sahifadan farqlash lozim: veb sahifa vebsaytdagi sahifalardan biri, xolos.

Ijtimoiy tarmoq — bu qiziqishlari o'xshash yoki oflays-aloqaga ega bo'lgan odamlar o'rtasida muloqot qilish, tanishish, ijtimoiy munosabatlar yaratish uchun, shuningdek, ko'ngilochar (musiqa va filmlar) va ish maqsadlarida ishlatiladigan onlayn platforma.

Keng tarqalgan ijtimoiy tarmoqlarga facebook, twitter, odnoklassniki, vkontakt, pinterest va boshqalar kiradi. Kishilar o‘zлari yaratgan ilg‘or ish tajribalarni boshqa hamkasblari orasida ommalashtirish maqsadida saytlar va veb platformalariga, ijtimoiy tarmoqdagi guruhlar va sahifalariga joylash orqali erishishi mumkin. Bu holda ilg‘or ish tajribani yoritishda media dasturlaridan maksimal foydalanish imkoniyati mavjud bo‘ladi, foto, grafik, diagramma, audio, video mahsulotlar hammasidan bir vaqtda foydalanish imkoniyati yaratiladi, vizual vositalar ko‘lami yuqori darajada ishlataladi. Muhim jihatni bir vaqtda chegara tanlamagan holda bir necha soniyalar ichida butun dunyoga tarqatish imkoniyati yaratiladi.

Internet orqali ommalashtirishning afzalliklaridan biri deyarli xarajatsiz yoki juda kam xarajatli bo‘lishi katta foydaligini bildiradi. Shuningdek yana bir foydasи, qayta aloqa juda yaxshi yo‘lga qo‘yilgan mazkur yo‘lda.ilg‘or ish tajriba egasi va va boshqa foydalanuvchilar yaratilgan ilg‘or metodik ish yuzasidan har qanday usulda qayta aloqa orqali bog‘lanib o‘zaro fikr almashishlari mumkin. Bu esa yaratilgan ish bo‘yicha tug‘iladigan savollarga tezkorlik bilan javob olishni va yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etishni ta’minlaydi. Umuman olganda bunda internet chat orqali aloqa bog‘lash har ikki tomon uchun foydali hisoblanadi. Internet orqali nafaqat o‘z davlatida, balki butun dunyodagi hamkasblarga ham o‘zining ilg‘or ish faoliyatini tarjima qilish orqali ommalashtirish imkoniyati mavjud.

Hozirda televiedeniya kanallari ham, radio ham, gazeta va jurnallar ham elektron formaga, internetda o‘zlarining ish faoliyatlarini bir tomonlama yoki to‘liq formatga o‘tkazish jarayonlari ketayotgan bir paytda internet orqali ommalashtirishning yuqorida keltirilgan barcha ommalashtirish yo‘llaridan ko‘ra eng samarali va foydali, tezkor yo‘l hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Azizzxo‘jayeva N.N. O‘qituvchi mutaxassisligiga tayyorlash texnologiyasi. - Toshkent: Nizomiy nomli TDPU, 2000.

2.Djuraeva B.R., Umarova X.A., Tojiboeva H.M., Nazirova G.M. «Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim jarayonining sifati va samaradorligini takomillashtirishning pedagogik tizimi» / monografiya // Toshkent, Real print. – 2017. 160 b.